



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025–2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

GEOGRAFIYA (9-sinf) FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

*Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball*

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Atmosferaning quyi qatlami nima deb ataladi?

- A) Troposfera B) Stratosfera
C) Mezosfera D) Ionosfera

2. [0,9 ball] Tekisliklar asosan Shimoliy Amerikaning qaysi qismini egallaydi?

- A) g'arbiy B) shimoliy
C) sharqiy D) janubiy

3. [0,9 ball] Bolgariya davlati poytaxtini belgilang?

- A) Sofiya B) Budapesht
C) Tirana D) Buxarest

4. [0,9 ball] Tayga tabiat zonasida qanday tuproqlar tarqalgan?

- A) kashtan B) sur o'rmon
C) podzol D) qizil qo'ng'ir

5. [0,9 ball] O'zbekiston qaysi tomondan Tojikiston bilan chegaradosh?

- A) shimoli-g'arb B) janub
C) janubi-g'arb D) janubi-sharq

6. [0,9 ball] Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryoni belgilang?

- A) Ili B) Chirchiq
C) Ohangaron D) Sherobod daryo

7. [0,9 ball] O'zbekiston hududi nechta neft-gazli mintaqalarga ajratiladi?

- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

8. [0,9 ball] Yevrosiyaning ekvatorial iqlim mintaqasida nechta tabiat zonasi shakllangan?

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

9. [0,9 ball] Agar tog' etagida harorat $+24^{\circ}\text{C}$, uning cho'qqisida 0°C bo'lsa, bu tog'ning balandligini hisoblang?

- A) 3000 metr B) 4000 metr
C) 5000 metr D) 6000 metr

10. [0,9 ball] O'zbekiston maydoni bo'yicha jahonda nechanchi o'rinni egallaydi?

- A) 45 B) 55 C) 19 D) 81

11. [1,5 ball] Aholining migratsiya hisobiga ko'payishi nima deyiladi

- A) tabiiy ko'payishi
B) migratsion ko'payishi
C) statistik ko'payishi
D) mexanik ko'payishi

12. [1,5 ball] Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti qanday ataladi?

- A) MAGATE B) JST
C) OPEK D) MERKOSUR

13. [1,5 ball] O'zbekistonning qaysi qismida yozda (22° -iyunda) quyosh radiatsiyasi $71-72^{\circ}$ burchak ostida tushadi?

- A) shimoliy B) g'arbiy
C) markaziy D) janubiy

14. [1,5 ball] Matnni o'qing.

Ushbu materikning asosiy ekologik muammolaridan biri muzliklarning erishidir. Bu sayyoramizda iqlim isishi jarayoni bilan bog'liq. Muzlikning erishi Dunyo okeani sathining ko'tarilishiga olib keladi. Muammolardan yana biri — "ozon tuynuk"lari bilan bog'liq. Yer atmosferasining ifloslanishi oqibatida, uning ustida "ozon tuynuk"lari paydo bo'lgan. Natijada Quyoshdan zararli nurlarning kelishi kuchayib bormoqda. Bu holat tirik organizmlar uchun katta havf tug'diradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar qaysi materikga tegishli?

- A) Shimoliy Amerika B) Antarktida
C) Yevrosiyo D) Janubiy Amerika

15. [1,5 ball] Sayram qaysi tizmaning eng baland cho'qqisi hisoblanadi?

- A) Ugom B) Piskom
C) Qurama D) Chatqol

16. [1,5 ball] Ikki shahar oralig'idagi masofa 300 km teng bo'lsa, 1:1000 000 masshtabli xaritada ular orasidagi masofa necha santimetrga teng?

- A) 30 B) 10 C) 3 D) 300

17. [1,5 ball] O'zbekistonda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2017-yilda qancha bo'lgan?

- A) 52,5 % B) 38,2 %
C) 31,0 % D) 54,9 %

18. [1,5 ball] Qaysi daryo Ko'ksuv tog' tugunidagi muzlikdan Mastchoh nomi bilan boshlanadi?

- A) Ko'ksuv B) Sangzor
C) Zarafshon D) Chotqol

19. [1,5 ball] Tonga, Kermadek, Filippin, Peru, Chili cho'kmalari qaysi okeanda joylashgan?

- A) Atlantika B) Tinch
C) Hind D) Janubiy

20. [1,5 ball] Taxtaqoracha dovonining dengiz sathidan balandligini aniqlang?

- A) 1630 m B) 1115 m
C) 2630 m D) 2197 m

21. [2,6 ball] Ohangaron vodiysi va Qorjontov etaklaridan aluminiy xomashyosi bo'lgan qaysi foydali qazilma turi topilgan?

- A) dala shpati B) nefelin
C) molibden D) alunit

22. [2,6 ball] Quyidagi berilgan davlatlardan qaysilari prezidentlik respublikasi hisoblanadi?

- A) Albaniya, Avstriya
B) Livan, Ispaniya
C) AQSh, Germaniya
D) Braziliya, Argentina

23. [2,6 ball] Hududlarga xos iqlim mintaqalarni aniqlang.

1	Kamchatka yarim oroli	a	mo'tadil
2	Kipr oroli	b	ekvatorial
3	Shpitsbergen arxipelagi	c	subtropik
4	Kalimantan oroli	d	arktika

- A) 1- a, 2- c, 3- d, 4- b
B) 1- d, 2- c, 3- a, 4- b
C) 1- d, 2- a, 3- a, 4- b
D) 1- a, 2- b, 3- d, 4- c

24. [2,6 ball] Quyi Zarafshon okrugiga tegishli ko'llarni belgilang?

1. Qorako'l 2. Aydarko'l 3. Sariqamish
4. Axsikentko'l, 5. Parsanko'l 6. Qoraqir
7. Damko'l, 8. Moxonko'l 9. Tuzkon 10. Arnasoy

- A) 1,2,3,5 B) 1, 5, 6, 8
C) 1, 4, 5, 6, 8 D) 1, 3, 5, 7, 9

25. [2,6 ball] Surxondaryo viloyatining qaysi tumanlari havosi Tojikistonning Tursunzoda shahridagi aluminiy zavodidan chiqqan zaharli flor gazi bilan ifloslangan?

- A) Sariosiyo va Uzun
B) Denov va Termiz
C) Qumqo'rg'on va Sherobod
D) Sho'rchi va Boysun

26. [2,6 ball] Dengiz chuqurligi 9000 metrga teng. Kemada o'rnatilgan exolot asbobidan uning tubiga yuborilgan exo turidagi tovush necha sekunddan keyin qaytib kelishini hisoblang? Tovushning suvdagi tezligi 1500 m/s ga teng.

- A) 8
B) 10
C) 12
D) 6

27. [2,6 ball] Atlantika okeaniga tegishli dengizlarni aniqlang.

1. Oxota. 2. Sariq. 3. Alboran. 4. Filippin.
5. Tirren. 6. Kara. 7. Chukotka. 8. Irlandiya.
9. Marmar. 10. Karib.

- A) 2, 5, 8, 9, 10
B) 3, 5, 8, 9, 10
C) 5, 6, 8, 9, 10
D) 1, 3, 5, 6, 8, 9

28. [2,6 ball] O'zbekistonda qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish, ular chegaralarini o'zgartirish qanday amalga oshiriladi?


- A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan
B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan
C) Xalq deputatlari viloyat kengashlari taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan
D) Tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan

29. [2,6 ball] Berilgan yozuvsiz xaritada 4 raqami bilan qaysi orol ko'rsatilgan?



- A) Sulavesi B) Tayvan
C) Yava D) Xaynan

30. [2,6 ball] Berilgan rasmdagi strelka bilan alohida ko'rsatilgan chiziq nomi qaysi qatorda berilgan?



- A) Okean yer po'sti bilan mantiya orasidagi chegara
B) Litosfera plitalari chegarasi
C) Moho chegarasi
D) Okean yer po'sti bilan yuqori mantiya orasidagi chegara